



**“AVO Platinum — Sizning tarifingiz”
aksiyasini o‘tkazish qoidalari**

1. Atamalar va ta'riflar

Aksiya – "AVO Platinum — Sizning tarifingiz" rag'batlantiruvchi aksiyasi bo'lib, uning doirasida Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Aksiya ishtirokchilariga Karta bo'yicha komissiyalar uchun Sovrinli tariflarni belgilaydi.

Bank – "AVO bank" aksiyadorlik jamiyati ("AVO bank" AJ), STIR 207257279, ro'yxatga olish raqami 16/1, manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29A-uy, telefon: +998 78 888-78-78, elektron pochta manzili info@avo.uz, Aksiyaning tashkilotchisi hisoblanadi.

Bosh shartnoma – "AVO bank" AJda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Bosh shartnoma.

Karta – Kartani foydalanishga berish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq Bank tomonidan Mijozga "AVO platinum" tarif rejasi bo'yicha chiqarilgan bank kartasi.

Bank mijosi – 18 yoshga to'lgan, Bankning mobil ilovasida raqamli identifikatsiyadan o'tgan va Bank bilan "AVO Platinum" kartasi bo'yicha kredit limiti taqdim etish to'g'risida shartnoma tuzgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

Kredit shartnomasi – Bank va Mijoz o'rtasida Bankning "AVO platinum" kredit kartasi uchun tuzilgan mikroqarz shartnomasi bo'lib, u Bosh shartnomaning ilovasi yoki ajralmas qismi bo'lgan tegishli Ariza, Oferta, Tarif rejasi, Kreditlashning umumiy shartlari, Kreditlashning individual shartlarini o'z ichiga oladi.

G'olib – O'yin natijalariga ko'ra Sovrinli tarif berilgan Aksiya ishtirokchisi.

Qoidalar – Aksiyani o'tkazish tartibini belgilaydigan ushbu hujjat.

Sovrinli tarif – Qoidalarda belgilangan shartlar va tartibda Aksiya ishtirokchisiga nisbatan qo'llaniladigan Karta bo'yicha komissiyaning individual tarifi.

Yutuqli o'yin – Qoidalarga muvofiq Aksiya ishtirokchilari orasidan g'oliblarni tasodifiy tanlash yo'li bilan aniqlash jarayoni.

Bank sayti – Bankning Internet tarmog'ida www.avobank.uz manzili bo'yicha joylashtirilgan rasmiy veb-sayti.

Aksiya ishtirokchisi – Ushbu Qoidalarining 3.1-bandida belgilangan shartlarni bajargan Bank mijosi. Qoidalarda bosh harf bilan qo'llanilgan boshqa atamalar Bosh shartnomadagi kabi ma'noga ega.

2. Umumiy qoidalar

- 2.1. Mazkur Qoidalar mijozlarni saqlab qolish va Bank mahsulotlaridan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan Aksiyani o'tkazish tartibini belgilaydi.
- 2.2. Aksiyaning o'tkazilish muddati:
 - 2.2.1. Aksiyaning boshlanish sanasi va vaqti: 2026-yil 17-avgust;
 - 2.2.2. Aksiyaning yakunlanish sanasi va vaqti: 2026-yil 31-dekabr.
- 2.3. Aksiyaning o'tkazilish muddati Bank tashabbusi bilan o'zgartirilishi mumkin. Aksiya o'tkazilish muddati o'zgargan taqdirda, Bank Aksiya ishtirokchilarini Bank saytida tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali xabardor qiladi.

- 2.4. Aksiyaning o'tkazilish hududi: O'zbekiston Respublikasining butun hududi.
- 2.5. Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ommaviy ofertani muddatidan oldin chaqirib olish nazarda tutilmagan.
- 2.6. Aksiya Ishtirokchisining Aksiyada qatnashishga qaratilgan har qanday harakatni amalga oshirishi ofertaning to'liq va so'zsiz aksepti hisoblanadi.
- 2.7. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi.
- 2.8. Qoidalar, ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Saytida e'lon qilinadi.

3. Aksiyada ishtirok etish qoidalar

- 3.1. Ishtirokchilar ro'yxatini shakllantirish va Yutuqli o'yinni o'tkazish vaqtida quyidagi talablarga javob beradigan Bank Mijozlari Aksiya ishtirokchilari hisoblanadi:
 - 3.1.1. Qoidalarining 1-ilovasida ko'rsatilgan Yutuqli o'yinda ishtirok etish talablariga mos kelish;
 - 3.1.2. Bank oldida har qanday muddati o'tgan qarzorlikning mavjud emasligi;
 - 3.1.3. Bank bilan affillangan shaxslar ro'yxatiga kiritish uchun asoslarning yo'qligi;
 - 3.1.4. Bank Mijozi "Kredit kartalari uchun 34,9% stavkali maxsus tarif" aksiyasining ishtirokchisi bo'lmashligi;
 - 3.1.5. Bank mijoziga Kredit shartnomasi bo'yicha yillik 27,9 foiz stavkasi belgilanmagan.
- 3.2. Aksiyaning yutuq jamg'armasi Qoidalarining 1-ilovasiga muvofiq Yutuqli tariflarni o'z ichiga oladi.
- 3.3. Bank xodimlari, shuningdek, Bank bilan affillangan shaxslar Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas va unda qatnashishga qo'yilmaydi. Yutuqli o'yin o'tkazilganidan so'ng ushbu shaxslarning ishtirok etgani holati aniqlansa, ular Aksiyaning o'tkazilish bosqichidan qat'i nazar, Yutuqli tarifni olish huquqsiz Aksiya ishtirokchilari safidan chetlatiladi.

4. G'oliblarni aniqlash tartibi

- 4.1. Har bir Yutuqli o'yinda Bank G'oliblarni tasodifiy tarzda aniqlaydi va ularga 1-ilovaga muvofiq Yutuqli tariflarni belgilaydi.
- 4.2. Tegishli Yutuqli o'yinda ishtirok etish mezonlariga javob beradigan Aksiya Ishtirokchilarining ro'yxati Yutuqli o'yin o'tkaziladigan sanadan 2 (ikki) kalendar kun oldin Bank tomonidan shakllantiriladi.
- 4.3. Yutuqli o'yinlarni o'tkazish jadvali Bank tomonidan belgilanadi va Bankning veb-saytida e'lon qilinadi.
- 4.4. G'oliblar Aksiya ishtirokchilari ro'yxatidan maxsus dasturiy vosita (randomayzer) yordamida tasodifiy tarzda tanlab olinadi. Dasturiy vosita sifatida RANDOM.ORG tasodifiy raqamlar

generatori onlayn-servisi yoki tanlov natijalarining xolisligi, tasodifiyligi va takrorlanuvchanligini ta'minlaydigan boshqa shunga o'xshash servislardan foydalaniladi.

- 4.5. Aksiya davomida uning har bir ishtirokchisiga faqat bitta Sovrinli tarif taqdim etilishi mumkin. Yutuqli o'yin g'olibi boshqa yutuqli o'yinlarda ishtirok eta olmaydi.
- 4.6. Qoidalarining 1-ilovasida keltirilgan sovrin jamg'armasidagi sovrinli tariflar yutuqli o'yin natijalariga ko'ra G'oliblarga taqdim etiladi. Har bir Sovrinli tarif uchun Bank tomonidan belgilangan miqdordagi G'oliblar aniqlanadi va ular Aksiya ishtirokchilari orasidan tasodifiy tarzda tanlab olinadi.

5. Sovrinli tarifni qo'llash tartibi

- 5.1. G'olibga taqdim etilgan Sovrinli tarif yutuqli o'yin o'tkazilgan sanadan boshlab 48 soat ichida Bank tomonidan Karta bo'yicha operatsiyalarga nisbatan avtomatik tarzda qo'llanadi.
- 5.2. Taqdim etilgan Sovrinli tarif haqidagi ma'lumot G'olibga Bankning mobil ilovasida aks ettiriladi.
- 5.3. Sovrinli tarif Qoidalarining 1-ilovasida ko'rsatilgan Karta bo'yicha tegishli komissiya stavkalari o'rniga qo'llanadi. Bank tariflarining qolgan qismi Aksiya ishtirokchisiga nisbatan o'zgarishsiz qoladi.
- 5.4. Sovrinli tarifning amal qilish muddati Qoidalarining 5.1-bandiga muvofiq belgilangan kundan boshlab 3 kalendar oyini tashkil etadi.
- 5.5. Aksiya ishtirokchisi Qoidalarining 7.7-bandida nazarda tutilgan tartibda Aksiyada ishtirok etishdan voz kechishga haqli, bu holda O'yin natijalariga ko'ra taqdim etilgan Sovrinli tarif o'z kuchini yo'qotadi.
- 5.6. G'olib o'ziga taqdim etilgan Sovrinli tarifni boshqasiga almashtirishni yoki pul ko'rinishidagi tovon pulini talab qila olmaydi.

6. Cheklovlar

- 6.1. Bank O'yin natijalariga ko'ra G'oliblarga taqdim etilgan Sovrinli tariflarning miqdori va shartlaridan tashqari, Qoidalariga bir tomonlama tartibda o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritishga haqli. Aksiya ishtirokchilari Bankning veb-saytidagi tegishli o'zgarishlarni kuzatib borish orqali Qoidalarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.
- 6.2. Agar Aksiya ishtirokchisi quyidagi holatlarga yo'l qo'ysa, Bank uni ogohlantirmasdan va sabablarini tushuntirmasdan Aksiya ishtirokchilari safidan chetlatishga haqli:
 - 6.2.1. Bankni chalg'itishga qaratilgan harakatlarni, shuningdek, Qoidalarni chetlab o'tishga yoki Aksiyada ishtirok etish natijalariga insofsizlik bilan ta'sir ko'rsatishga qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirsa va/yoki
 - 6.2.2. Aksiya doirasida taqdim etiladigan har qanday imtiyozlarni suiiste'mol qilsa va/yoki
 - 6.2.3. Bankka chalg'ituvchi axborot yoki noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etsa va/yoki
 - 6.2.4. Bankning ishbilarmonlik obro'siga putur yetkazadigan ma'lumotlarni tarqatsa va/yoki

- 6.2.5. Qoidalarining 3.3-bandiga muvofiq Bank xodimi va/yoki Bank bilan aloqador shaxs bo'lsa va/yoki
- 6.2.6. Bankning Aloqa markaziga murojaat qilish orqali Bankning reklama kommunikatsiyalarini (qo'ng'iroqlar, push-bildirishnomalar, SMS-xabarnomalar) olishdan voz kechgan bo'lsa.
- 6.3. Quyidagi hollarda Bank G'olibga sabablarni tushuntirmasdan Sovrinli tarifni taqdim etishni rad etishga haqli:
 - 6.3.1. Bank G'olib tomonidan Qoidalar shartlari suiiste'mol qilingani belgilarini aniqlagan taqdirda, va/yoki
 - 6.3.2. Agar Bank G'olibning harakatlari/harakatsizligini vijonsizlik va/yoki Aksiya ishtirok etish shartlarining o'zgacha tarzda buzilishi deb hisoblasa, va/yoki
 - 6.3.3. Qoidalarining 3.5-bandiga muvofiq Sovrinni berishni rad etish uchun asoslar mavjud bo'lganda.
- 6.4. Bank fors-major holatlari, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, tabiiy ofatlar, yong'inlar, suv toshqinlari, har qanday turdagi harbiy harakatlar, qamallar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muhim o'zgarishlar, shuningdek, yuzaga kelishi Bankning irodasi va nazoratiga bog'liq bo'lmagan (yoki bog'liq bo'lmagan) yengib bo'lmay kuchning boshqa holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Aksiya ishtirokchilari va boshqa uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'lmaydi.
- 6.5. Agar Sovrinli tarifni belgilashning imkonsizligi yoki o'z vaqtida belgilanmasligi texnik nosozliklar, axborot tizimlari ishida yuz bergan xatolar yoki Bankning aybi bilan yuzaga kelmagan boshqa texnik sabablar bilan bog'liq bo'lsa, Bank buning uchun javobgar bo'lmaydi.
- 6.6. Bank Aksiya ishtirokchisida Aksiya qatnashishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, sarf-xarajatlar va boshqa har qanday chiqimlarni, jumladan, Bank saytiga tashrif buyurish, Bankning Aloqa markaziga qo'ng'iroq qilish xarajatlarini qoplamaydi va tovon to'lamaydi.
- 6.7. Aksiya 18 yoshga to'lmagan shaxslar va Qoidalarda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan boshqa shaxslar ishtirok eta olmaydi.

7. Boshqa shartlar

- 7.1. Aksiya o'yin, garov va/yoki lotereya hisoblanmaydi, tavakkalchilik unsuriga ega emas va Qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.
- 7.2. Qoidalaridan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi. Jismoniy shaxs sudga da'vo arizasi berishdan oldin nizolarni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etishi — quyidagi usullardan biri bilan yozma e'tiroznoma yuborishi shart:
 - 7.2.1. Bank e'tiroznomani olganligini tasdiqlagan holda Bankning davlat ro'yxatidan o'tgan joyiga;
 - 7.2.2. elektron pochta orqali: info@avo.uz.

- 7.3. E'tiroznoma da'vo muddati ichida taqdim etilishi mumkin. Bank ushbu e'tiroznomani ko'rib chiqadi va u olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan oshmaydigan muddatda javob yuboradi. E'tiroznoma to'liq yoki qisman rad etilganda yoxud uni ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatlarda Bankdan javob olinmaganda, jismoniy shaxs sudga da'vo qilishga haqlidir.
- 7.4. Qoidalaridan kelib chiqadigan nizolar fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudida ko'rib chiqilishi lozim. Agar nizo bo'yicha da'vogar Bank bo'lsa, Bank o'z xohishiga ko'ra nizoni Toshkent shahrida yagona tarkibdagi hakamlik sudyasi tomonidan o'z reglamenti va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rus tilida hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudiga murojaat qilishga haqli.
- 7.5. Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.
- 7.6. Aksiya ishtirokchisi Qoidalarni bilishi va ularga rioya qilishi shart. Aksiya ishtirokchisi o'z nomidan shaxsan, ixtiyoriy va mustaqil ravishda harakat qiladi, o'z harakatlarining shartlari, oqibatlari va Qoidalarda belgilangan tegishli qoidalarni aniq tushunadi.
- 7.7. Aksiya ishtirokchisi +998 78 888-78-78 telefon raqami yoki info@avo.uz elektron pochta manzili orqali Bankning Aloqa markaziga murojaat qilib, Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.

Qoidalariga 1-ilova

"AVO Platinum — Sizning tarifingiz" Aksiyasi doirasidagi Yutuqli o'yinlarda ishtirok etish uchun sovrin jamg'armasi va talablar

1-yutuqli o'yin

Yutuqli o'yinda ishtirok etish talablari. Mijozlar bir vaqtning o'zida quyidagi mezonlarga mos kelishi shart:

- Bank bilan 2026-yil 1-iyulgacha (shu jumladan) Kredit shartnomasini tuzganlar;
- Yutuqli o'yin ishtirokchilari bazasini shakllantirish sanasida Mijoz uchun Yakka tartibdagi kreditlash shartlarida belgilangan "AVO Platinum" kartasi bo'yicha Kredit limiti summasidan foydalanish darajasi 30% (o'ttiz foiz) dan oshmaydi.

№	Sovrinli tarif	G'oliblar soni
	Naqd pul yechish va unga tenglashtirilgan Operatsiyalar uchun komissiya:	
1	Kredit bo'yicha olingan mablag'lar hisobidan Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi va boshqa banklarning bankomat va terminallarida AVO platinum kartasidan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 8,9% + 15 000 so'm 2000
2	Kredit bo'yicha olingan mablag'lar hisobidan Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi va boshqa banklarning bankomat va terminallarida AVO platinum kartasidan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 8,9% 2000
3	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 5,9% + 29 000 so'm 2000
4	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 5,9% + 15 000 so'm 2000
5	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 5,9% 2000
6	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 2000

		2,9% + 29 000 so'm	
7	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 2,9% + 15 000 so'm	2000
8	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 2,9%	2000
	Jami:		16 000

2-yutuqli o'yin

Yutuqli o'yinda ishtirok etish talablari: Yutuqli o'yin ishtirokchilari bazasini shakllantirish sanasidan oldingi 3 (uch) hafta ichida Bank bilan Kredit shartnomasi tuzgan mijozlar

№	Sovrinli tarif	G'oliblar soni
	Naqd pul yechish va unga tenglashtirilgan operatsiyalar uchun komissiya:	
1	AVO platinum kartasi yordamida Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 8,9% + 15 000 so'm 220
2	AVO platinum kartasi yordamida Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 8,9% 220
3	AVO platinum kartasi yordamida Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 5,9% + 29 000 so'm 220
4	AVO platinum kartasi yordamida Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 5,9% + 15 000 so'm 220

5	AVO platinum kartasi yordamida Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 5,9%	220
6	AVO platinum kartasi yordamida Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 2,9% + 29 000 so'm	220
7	AVO platinum kartasi yordamida Bankning bankomatlari, Mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 2,9% + 15 000 so'm	220
8	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 2,9%i	220
Jami:			1760

3-yutuqli o'yin

O'yinda ishtirok etish uchun talablar: O'yin ishtirokchilari bazasini shakllantirish sanasidan oldingi 3 (uch) hafta ichida Bank bilan Kredit shartnomasini tuzgan mijozlar

№	Sovrinli tarif	Gʻoliblar soni
	Naqd pul yechib olish va unga tenglashtirilgan operatsiyalar uchun komissiya:	
1	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit boʻyicha olingan mablagʻlardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 8,9% + 15 000 soʻm 220
2	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit boʻyicha olingan mablagʻlardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 8,9% 220
3	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit boʻyicha olingan mablagʻlardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 220

		5,9% + 29 000 so'm	
4	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 5,9% + 15 000 so'm	220
5	AVO platinum kartasi orqali Bankning bankomatlari, mobil ilovasi hamda boshqa banklarning bankomat va terminallarida Kredit bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 5,9%	220
6	AVO platinum kartasi bo'yicha Kreditdan olingan mablag'lardan Bankomatlarda, Bankning Mobil ilovasida va boshqa banklarning bankomat hamda terminallarida foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 2,9% + 29 000 so'm	220
7	AVO platinum kartasi bo'yicha Kreditdan olingan mablag'lardan Bankomatlarda, Bankning Mobil ilovasida va boshqa banklarning bankomat hamda terminallarida foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 2,9% + 15 000 so'm	220
8	AVO platinum kartasi bo'yicha Kreditdan olingan mablag'lardan Bankomatlarda, Bankning Mobil ilovasida va boshqa banklarning bankomat hamda terminallarida foydalanganda	Chiqim Operatsiyasi summasining 2,9%	220
	Jami:		1760

Agar boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, Sovrinli tariflardagi barcha qat'iy belgilangan summalar qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hisobga olingan holda ko'rsatilgan.

**“AVO Platinum — Sizning tarifingiz” aksiyasi doirasida
Yutuqli o'yinlarni o'tkazish jadvali**

Bosqich	Sana	Vaqt
1-yutuqli o'yin	19 avgusta 2026	10:00 Toshkent vaqti bilan
2-yutuqli o'yin	19 avgusta 2026	10:00 Toshkent vaqti bilan
3-yutuqli o'yin	26 avgusta 2026	10:00 Toshkent vaqti bilan